| Turgunov Odilbek Maripovich                                                                                                                    |     |
| Zamonaviy pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini baholash .....                                                      | 542 |
| Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich                                                                                                            |     |
| The unique characteristics of governance systems in various countries: a comparative analysis.....                                             | 549 |
| Bozorboev Otamurod Nurmuxammad ugli, Denny Andriana, Usmanov Bunyod                                                                            |     |
| GREEN ECONOMY AND GREEN CHEMISTRY: principles, priorities, advantages and it's impact to the future.....                                       | 553 |
| Fozilova Firangiza Komilovna, Zokirova Ferangiz Zafarovna                                                                                      |     |
| Kichik biznesda yoshlar tadbirkorligini shakllantirish va rivojlantirishning mohiyati va ahamiyati.....                                        | 557 |
| Karimova Mavjuda Boxodirovna                                                                                                                   |     |
| Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari .....              | 562 |
| Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li                                                                                                           |     |
| Temir yo'l transportida yuk tashish samaradorligining iqtisodiy negizi tushunchasi va xususiyati.....                                          | 568 |
| Shukurova Sultana Said Sultanovna                                                                                                              |     |
| Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarining hozirgi holati va tendensiyasi.....                                          | 572 |
| Hayitova Nigora Ilxomovna                                                                                                                      |     |
| Mamlakat tashqi qarzini boshqarishning samarali yo'llari .....                                                                                 | 576 |
| Choriyev Fazliddin Ishkuvatovich                                                                                                               |     |
| A comparative analysis of investment risk management in the non-profit sector .....                                                            | 583 |
| Rakhimov Shoxrux Abduqaxxor O'g'li, Muhamad Arief Ramdhany                                                                                     |     |
| Роль налога на доходы физических лиц в формировании бюджета узбекистана.....                                                                   | 587 |
| Наврузова Фароғатхон                                                                                                                           |     |



|                                                                                                                                                                  |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Принцип работы электронных денег в форме электронных кошельков в банковском секторе .....                                                                        | 592 |
| Ширинова Шохсанам Собир кизи                                                                                                                                     |     |
| Дальнейшее повышение эффективности деятельности постов удаленного электронного декларирования путем преобразования их структуры и алгоритма взаимодействия ..... | 598 |
| Вахидова Феруза Алимовна                                                                                                                                         |     |
| Ishbilarmonlik muhitining mohiyati hamda uni baholashning zamonaviy usullari .....                                                                               | 603 |
| Majidov Faxriddin Abdurazzok o'g'li                                                                                                                              |     |
| Davlat moliyaviy siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati .....                                                                                                  | 609 |
| Jabborova Dilafruz Sodiq qizi                                                                                                                                    |     |
| Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida kichik biznes subyektlari faoliyatining ahamiyati .....                                                                     | 614 |
| Ismoilov Narimonjon No'monjon o'g'li                                                                                                                             |     |
| Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari .....                                                    | 619 |
| Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li                                                                                                                                 |     |
| Telekommunikatsiya sanoatining rivojlanish tendensiyalari .....                                                                                                  | 625 |
| Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich                                                                                                                              |     |
| O'zbekistonda xizmatlar sohasi va uning amaldagi holati tahlili .....                                                                                            | 631 |
| Suyunov Asror Baxtiyorovich                                                                                                                                      |     |
| Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning atrof-muhitni yaxshilash va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish munosabatlari tahlili .....                                 | 637 |
| Raximova Mohinur Dilshod qizi                                                                                                                                    |     |





o'rganib, ularning bir-biriga bog'liq jihatlari tahlil qilgan. U, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi ko'pincha tabiiy resurslarning ko'payib boruvchi ekspluatatsiyasiga olib kelishini, bu esa atrof-muhit sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatgan.

Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish bo'yicha makroiqtisodiy siyosatning roli xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. N. Stern o'zining mashhur "Stern Reviyew" hisobotida iqtisodiy o'sish va iqlim o'zgarishlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. U iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish uchun qilingan sarmoyalarning uzoq muddatda iqtisodiy foyda keltirishini ko'rsatgan. Sternning tadqiqotlari iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq xarajatlarning makroiqtisodiy o'sishga ta'siri haqida chuqur tahlillarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston sharoitida ekologik siyosatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. D. Karimova O'zbekistonning "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ekologik siyosatning o'zaro bog'liqligini o'rgangan. Karimova "Yashil" siyosatning iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitni yaxshilashga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, mamlakatning ushbu yo'nalishda olib borayotgan ishlarini tahlil qilgan.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning atrof-muhitni yaxshilash va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish munosabatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu tadqiqotlar bir tomondan iqtisodiy o'sishning atrof-muhitga ta'sirini o'rganishda, ikkinchi tomondan esa iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashda samarali siyosatlarni ishlab chiqishda asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning atrof-muhitni yaxshilash va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Mahalliy aholi va tabiatni muhofaza qiluvchilar biologik xilma-xillikni himoya qilish uchun kuchlarini birlashtirgan shahar metropoliyalarining gavjum ko'chalarigacha "Yashil" texnologiya energiya iste'molini takomillashtirmoqda. Lekin hududlarimizda "Yashil" ekotizimga oid turli muammolar iqlim o'zgarishiga qarshi kurash faqat ilmiy laboratoriyalar va xalqaro sammitlar bilan takomillashtirilishi lozim. Bu qayta tiklanadigan energiya manbalarini qamrab olish, transportni qayta ko'rib chiqish va barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini rag'batlantirish lozimligini anglatadi. Shuningdek, migratsiya muammolari, ishsizlik muammolari, investitsiya va jamg'armalar, atrof-muhit tashkilotlariga a'zolik, bank hisob raqamlari sonining ortishi, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash masalalari makroiqtisodiy barqarorlik vositasida mamlakatimizning "Yashil" iqtisodiyotga transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish taxminlari ilgari suriloqda. Bu odamlarni o'z tanlovlari va atrof-muhitga ta'siri haqida fikr yuritishga hamda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar natijasida siyosatchilarni barqaror amaliyotni ustun qo'yishga chaqiradi. Eng muhimi, bu birdamlik uchun mamlakatimiz viloyatlari birgalikda islohotlarni qo'llab-quvvatlashlari lozim bo'ladi. Atrof-muhitni muhofaza qilishning mamlakatimiz o'zining biologik xilma-xilligi va tabiiy jarayonlari bilan jozibado'rligini kamaytirib bormoqda. Bu umumiy meros, biz kelajak avlodlar uchun ishonib topshiradigan xazinadir.

Tadqiqot jarayonida quyidagi so'rovnomaga o'tkazildi hamda shu orqali natijalar tahlil qilindi: mamlakatimizda "makroiqtisodiy barqarorlik" Latent o'zgaruvchisining "Yashil" iqtisodiyot muammolarini kamaytirishga qanday bog'liqlik va qanchalik ta'sir mavjud? So'rov natijasida olingan ma'lumotlarga muvofiq bog'liq o'zgaruvchilar (Dependent variable DV) quyidagilar:

$y_1$  - "Yashil" iqtisodiyot muammolarani;

$y_2$  - Migratsiya muammolar.

Ta'sir etuvchi mustaqil o'zgaruvchilar sifatida tadqiqot jarayonida kuzatilgan atrof-muhit tashkilotlari, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash va makroiqtisodiy barqarorlik latent o'zgaruvchi hisoblanadi. Shuningdek, jami respondentlar soni 1,506 ta bo'lib, barchasi sifat o'zgaruvchilardan iborat. Ushbu so'rovnomaga ma'lumotlari bo'yicha biz 2 ta ilmiy farazlar shakllantirib ularni mos keluvchi testlardan o'tkazamiz:



1-rasm. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning atrof-muhitni yaxshilashga ta'siri gipotezasi.

1. Davlat xarajatlari, migratsiya muammolari, ishsizlik muammolari, investitsiya va jamg'armalar, iqtisodiy barqarorlik va norasmiy daromadlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni izohlab kelib, "makroiqtisodiy barqarorlik" Latent o'zgaruvchi "Yashil" iqtisodiyot muammolariga ta'sir qilmaydi.

2. Atrof-muhit tashkilotlariga a'zo bo'lish va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash "Yashil" iqtisodiyot muammolariga ta'sir qilmaydi.

Ekonometrik tahlil jarayonida biz nochiziqli funktsiya asosida STATA 15.0 dasturidan foydalandik. Biz, mazkur muammo yuzasidan ilmiy va mantiqiy xulosalar qilish uchun "Tarkibiy tuzilmaviy tahlil" "Principal-Component Analysis" modelidan foydalandik. Bu esa oddiy chiziqli regressiya modelidan keskin farq qilib kuzatib bo'lmaydigan ba'zi omillarni modelda jamlash, izohlash, solishtirish va xulosalar qilish imkonini beradi<sup>1</sup>. "Principal-Component Analysis" — bu ko'p sonli o'zgaruvchilarni kam sonli kuzatuvlar bilan aralash holatda x-o'zgaruvchining eng yuori ehtimoliy qiymatiga u-bog'liq o'zgaruvchining eng katta qiymatiga mos kelishi (maximum likelihood) qonuniyatiga asoslangan tahlil usulidir<sup>2</sup>. Mazkur tahlil umumiy chiziqli modelning (OLS) bir qismi bo'lib, bir nechta gipotezalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, modelda qisman chiziqli bog'liqlikning (Partial least squares) mavjudligi, multikollinearlik muammosining yo'qligi, o'zgaruvchilar va omillar o'rtasida haqiqiy bog'liqlikning mavjudligini tahlil qiladi. Shuningdek, olingan natijalarga diqqat qaratamiz.

Tahlil jarayonida omilli tahlil olti bosqichdagi amallar va buyruqlar asosida modelashtirildi. Bu uslubiyot ba'zi adabiyotlarda indekslash uslubi deb ham nomlanadi<sup>3</sup>. Model shartlariga ko'ra, o'xshash parametrlarni tadqiqot jarayonida kuzatilmagan yangi indeks ostida jamlab ular orasidagi munosabatlar faktorlar qiymatlariga ko'ra tahlil qilinadi<sup>4</sup>. Biz jami parametrlarni 5 asosiy indeksga jamlab ularni quyida bosqichlarda o'zaro munosabatlarini aniqladik. Amaliy tahlil uchun ishlatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarning namuna olishning yetarilishini aniqlash uchun tadqiqotda Kaiser–Meyer–Olkin (KMO) testidan foydalanildi<sup>5</sup>. Hozirgi kun ijtimoiy soha olimlari ko'pincha ma'lum bir iqtisodiy jarayonlarni kuzatish uchun omilli tahlildan foydalanilmoqda.

Masalan, omil vazn testiga ko'ra davlat harajatlari: Faktor 1 (0,631), Faktor 2 (-0,354), Faktor 3 (0,154), o'ziga xoslik (0,453) qiymatlarni qayd etgan bo'lsa, mustaqil o'zgaruvchilardan "Migratsion muammolar" 1-omil

1 Brown T. A. & Moore M. T. (2012) Confirmatory factor analysis. In R. H. Hoyle (Ed.), Handbook of structural equation modeling. New York: Guilford Press. Pp. 361-379.

2 Stuijve I. (2007) A comparison of confirmatory factor analysis methods: oblique multiple group method versus confirmatory common factor method. Unpublished dissertation, Univer. of Groningen, Groningen, The Netherlands. Retrieved from <http://irs.ub.rug.nl/ppn/305281992>.

3 Floyd F. J. & Widaman K. F. (1995). Factor analysis in the development and refinement of clinical assessment instruments. Psychological Assessment, 7, 286–299.

4 Ferrando P. J. & Lorenza-Sevo U. (2005). IRT-related factor analytic procedures for testing the equivalence of paper-and-pencil and Internet-administered questionnaires. Psychological Methods, 10, 193–205

5 <https://www.statisticshowto.com/kaiser-meyer-olkin>.



(0,127), 2-omil (0,402), 3-omil (0,382), yagonalik (0,676) ni tashkil etgan. Masalan, "Ishsizlik muammolari" o'zgaruvchisi uchun 1-omil (0,083), 2-omil (0,038), 3-omil (0,857), yagonalik (0,257) ga teng bo'lsa, "Investitsiya va jamgarmalar" uchun 1-omil (0,277), 2-omil (0,690), 3-omil (-0,288), yagonalik (0,364)dan iborat.

## 2-jadval. "Makroiqtisodiy barqarorlik" indeksini shakllantirish tartibi.

(obs=1,506)

Factor analysis/correlation

Method: principal-component factors

Rotation: (unrotated)

Number of obs = 1,506

Retained factors = 3

Number of params = 15

| Factor  | Eigenvalue | Difference | Proportion | Cumulative |
|---------|------------|------------|------------|------------|
| Factor1 | 1.231      | 0.155      | 0.205      | 0.205      |
| Factor2 | 1.076      | 0.051      | 0.179      | 0.385      |
| Factor3 | 1.026      | 0.051      | 0.171      | 0.556      |
| Factor4 | 0.975      | 0.103      | 0.163      | 0.718      |
| Factor5 | 0.872      | 0.053      | 0.145      | 0.864      |
| Factor6 | 0.819      | .          | 0.137      | 1.000      |

LR test: independent vs. saturated:  $\chi^2(15) = 81.67$  Prob> $\chi^2 = 0.0000$

Factor loadings (pattern matrix) and unique variances.

| Variable                     | Factor1 | Factor2 | Factor3 | Uniqueness |
|------------------------------|---------|---------|---------|------------|
| Davlat xarajatlari           | 0.631   | -0.354  | 0.154   | 0.453      |
| Migratsiya muammolari        | 0.127   | 0.402   | 0.382   | 0.676      |
| Ishsizlik muammolari         | 0.083   | 0.038   | 0.857   | 0.257      |
| Investitsiya va jamg'armalar | 0.277   | 0.690   | -0.288  | 0.364      |
| Iqtisodiy barqarorlik        | 0.581   | 0.392   | -0.025  | 0.508      |
| Norasmiy daromad             | 0.629   | -0.397  | 0.195   | 0.408      |

Jami kuzatuvlar soni 1506 ta bo'lib, eng yuqori darajada haqiqatga yaqinlik (maximum likelihood) usulidan foydalanilmoqda. O'rnatilgan (mustaqil) modelni real model bilan solishtirganda muhim farqni izohlaydi ( $\chi^2(15) = 81,67$   $r < 0,0001$ ), bu omillar mustaqil o'zgaruvchilar bilan o'zaro bog'liq mavjudligini ko'rsatadi. Aygen qiymatlar soni 1dan katta bo'lish shartini modeldagi 3 ta omil isbotlashi "Makroiqtisodiy barqarorlik" yashirin o'zgaruvchisini (Latent variable) tuzib olish mumkinligini anglatadi.

Model shartlariga ko'ra, korrelyatsiya matritsasining aniqlovchi determinatsiya koeffitsiyenti (Determinant of the correlation matrix)  $\text{Det} = 0,947$  Bartlettning sharsimonlik testi (Bartlett test of sphericity) Chi-kvadrat= 81,611, ozod had darajasi = 15 va r-qiymati = 0,000ga teng bo'lib  $H_0$ : gipoteza "O'zgaruvchilar o'zaro bog'liq emas" ( $H_0$ : variables are not intercorrelated) shaklida o'rnatilgan.

## 3-jadval. KMO va Bartlett's test natijalari.

|                                                               |                 |
|---------------------------------------------------------------|-----------------|
| H0: variables are not intercorrelated                         |                 |
| Determinant of the correlation matrix                         | Det = 0.947     |
| Bartlett test of sphericity, Chi-square= 346.173              | p-value = 0.000 |
| Kaiser-Meyer-Olkin Measure of Sampling Adequacy<br>KMO= 0.515 |                 |

Biz testning r qiymatiga muvofiq  $H_0$  ni rad etib muqobil shaklini qabul qilamiz. Shuningdek, Kayser-Meyer-Olkin Namuna olishning adekvatligi o'lchovi (Kaiser-Meyer-Olkin Measure of Sampling Adequacy)  $KMO = 0,515$  ni tashkil etib, shartlarga ko'ra eng kamida 0.5 dan katta bo'lishi lozim edi.

Uchta tanlab olingan omilga ega ma'lumotlar to'plamida ortogonal varimax aylantirish usuli (Rotation: orthogonal varimax (Kaiser off)) o'tkazilgan test natijasida yangi qiymatlarni aniqlandi. Jadvalda har bir omil uchun dispersiya, farq, nisbat va kumulatif nisbat ko'rsatilgan. Nisbatlar shuni ko'rsatadiki, uchta omil ma'lumotlardagi umumiy dispersiyaning 55,6% ni izohlab kelmoqda. LR testi (Likelihood-ratio test independent vs. saturated) o'rnatilgan modelni real hayotdagi model bilan taqqoslaydi. Bu yerda barcha o'zgaruvchilar bir-biri



bilan mukammal korrelyatsiyaga ega bo'lib r-qiyamati 0,0000 ni tashkil etmoqda. Chi-kvadrat 81,67 qiymati o'rnatilgan model sezilarli darajada yaxshiroq ekanligini ko'rsatmoqda.

Aylanadigan omil yuklamalari (naqsh matritsasi) aylanishdan keyin har bir o'zgaruvchi va har bir omil o'rtasidagi korrelyatsiyani ko'rsatadi. Yagonalik ustuni har bir o'zgaruvchining uchta omil bilan izohlanmagan tafovut miqdorini ko'rsatadi. Masalan, "Davlat xarakterlari" 1-omil bo'yicha yuqori yuklanishga (0,716) va o'rtacha yagonalik qiymatiga (0,453) ega bo'lib, bu o'zgaruvchining 1-omil bilan kuchli bog'liqligidan dalolat beradi, lekin ayni paytda o'ziga xos dispersiyaga ham ega.

#### 4-jadval. Kaiser–Meyer–Olkin adekvatlik testi.

Factor analysis/correlation Number of obs = 1,506  
 Method: principal-component factors Retained factors = 3  
 Rotation: orthogonal varimax (Kaiser off) Number of params = 15

| Factor  | Variance | Difference | Proportion | Cumulative |
|---------|----------|------------|------------|------------|
| Factor1 | 1.189    | 0.076      | 0.198      | 0.198      |
| Factor2 | 1.114    | 0.083      | 0.186      | 0.384      |
| Factor3 | 1.031    | .          | 0.172      | 0.556      |

LR test: independent vs. saturated:  $\chi^2(15) = 81.67$  Prob> $\chi^2 = 0.0000$

Rotated factor loadings (pattern matrix) and unique variances


| Variable                     | Factor1 | Factor2 | Factor3 | Uniqueness |
|------------------------------|---------|---------|---------|------------|
| Davlat xarajatlari           | 0.716   | -0.011  | 0.186   | 0.453      |
| Migratsiya muammolari        | -0.117  | 0.331   | 0.448   | 0.676      |
| Ishsizlik muammolari         | 0.015   | -0.088  | 0.857   | 0.257      |
| Investitsiya va jamg'armalar | -0.109  | 0.776   | -0.149  | 0.364      |
| Iqtisodiy barqarorlik        | 0.293   | 0.628   | 0.108   | 0.508      |
| Norasmiy daromad             | 0.752   | 0.019   | -0.162  | 0.408      |

Factor rotation matrix

|         | Factor1 | Factor2 | Factor3 |
|---------|---------|---------|---------|
| Factor1 | 0.854   | 0.503   | 0.134   |
| Factor2 | -0.519  | 0.844   | 0.140   |
| Factor3 | -0.043  | -0.189  | 0.981   |

Faktor aylanish matritsasi har bir omil va aylanishdan keyin har bir saqlanib qolgan omil o'rtasidagi korrelyatsiyani ko'rsatadi. Masalan, 1-omil


2-omil (0,503) bilan yuqori korrelyatsiya va 3-omil (0,134) bilan o'rtacha korrelyatsiyaga ega (2.2.3-jadval).



#### 5-rasm. "Iste'molchi statusi" indeksining aygen qiymatini chegaralari bo'yicha skri plot chizmasi.



Aynan qiymatlarni grafikda tasvirlaganimizda aniqlikni isbotlovchi skri plot chizmasida 1 dan ortiq 3 ta qiymatning tanlanishi indeks barqarorligini ta'minlamoqda.



6-rasm. Atrof-muhitni yaxshilashda “Makroiqtisodiy barqarorlik” latenti.

Yuqoridagi rasmda “Makroiqtisodiy barqarorlik” Latentini izohlab kelayotgan 6 ta mustaqil o'zgaruvchilar qiymatlarining joylashuvi ifodalanmoqda. Unga ko'ra, investitsiya va jamg'armalar hamda migratsiya muammolari mam-lakatimizda yetarli darajada isloh etilgan deb topilmoqda. Lekin past muhimlik ya'ni islohotlarga muhtojlik sifatida ishsizlik muammoalari aniqlandi. Respondentlar fikriga ko'ra, iqtisodiy barqarorlik hududlarga yetarli tashkil etilgan bo'lsa, davlat xarajatlari va norasmiy daromadlarni tartibga solish yuzasidan katta islohotlar olib borilsa, O'zbekistonda “Yashil” iqtisodiyotga transformatsiya jarayonlari makroiqtisodiy jihatdan o'zaro munosabati mavjud deb xulosa qilish mumkin. Endilikda tuzib olingan “Makroiqtisodiy barqarorlik” Latent o'zgargauvchi vositasida N1 ilmiy farazimizni tek-shiramiz.

7-jadval. Regressiya testi natijalari


| Endogenous variables<br>Observed: q413e q413a<br>Exogenous variables<br>Observed: Makroiqtisodiy barqarorlik<br>Fitting target model:<br>Iteration 0: log likelihood = -7980.6013<br>Iteration 1: log likelihood = -7980.6013<br>Structural equation model<br>Number of obs = 1,506<br>Estimation method = ml<br>Log likelihood = -7980.6013 |        |          |        |       |           |           |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------|----------|--------|-------|-----------|-----------|
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | Coef.  | Std.Err. | z      | P>z   | [95%Conf. | Interval] |
| <b>Yashil iqtisodiyot muammolari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |        |          |        |       |           |           |
| Makroiqtisodiy barqarorlik                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | 0.079  | 0.068    | 1.160  | 0.246 | -0.055    | 0.213     |
| Atrof-muhit tashkilotlari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | -0.134 | 0.038    | -3.520 | 0.000 | -0.209    | -0.059    |



|                                     |       |       |        |       |       |       |
|-------------------------------------|-------|-------|--------|-------|-------|-------|
| Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash | 0.001 | 0.000 | 2.220  | 0.026 | 0.000 | 0.001 |
| _cons                               | 0.470 | 0.129 | 3.650  | 0.000 | 0.218 | 0.722 |
| <b>Sog'liq muammolari</b>           |       |       |        |       |       |       |
| Yashil iqtisodiyot muammolari       | 0.081 | 0.037 | 2.170  | 0.030 | 0.008 | 0.154 |
| _cons                               | 0.381 | 0.013 | 28.300 | 0.000 | 0.355 | 0.408 |
| var(e.q413e)                        | 0.112 | 0.004 |        | 0.104 | 0.120 |       |
| var(e.q413a)                        | 0.238 | 0.009 |        | 0.221 | 0.255 |       |

LR test of model vs. saturated:  $\chi^2(3) = 14.59$ , Prob >  $\chi^2 = 0.0022$

Regressiya natijalariga ko'ra, ikkita endogen o'zgaruvchi (yashil iqtisodiyot muammolari va sog'liq muammolari) va uchta ekzogen o'zgaruvchi (makroiqtisodiy barqarorlik, atrof-muhit tashkilotlari va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash) bo'lgan ma'lumotlar to'plamida o'tkazilgan tizimli tenglama modeli tahlilidir. Baholash usuli maksimal ehtimollik, log-yehtimollik qiymati esa — 7980.6013ni qayd etgan. Har bir ekzogen o'zgaruvchi uchun koyeffitsiyentlar, standart xatolar, z-qiymatlari, p-qiymatlari va ishonch oraliqlari jadvalda ko'rsatilgan. Q413e endogen o'zgaruvchisi uchun faqat dispersiya (var(ye.q413e)) hisoblab topildi. q413a endogen o'zgaruvchisi uchun yashil\_iqtisodiyot\_muammlari ekzogen o'zgaruvchisi uchun koyeffitsiyent 0,081, p-qiymati 0,030 va 95% ishonch oralig'i [0,008, 0,154]. Q413a uchun doimiy muddat p-qiymati 0,000 bo'lgan 0,381 ga teng. Demak, makroiqtisodiy barqarorlik Latent o'zgaruvchisi mamlakatimizdagi "Yashil" iqtisodiyot muammolarini kamaytirishga z-testning  $r > 0.05$  qiymat oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lgani uchun ta'siri mavjud emas deb topildi. Bizningcha, N1 gipoteza samarasiz taxmin bo'lib chiqmoqda.



8-rasm. Tarkibi tuzilmaviy tahlil natijalarining vizual grafigi.

N2 gipotezani tekshirganimizda atrof-muhit tashkilotlariga a'zo bo'lishlar sonining ortishi va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash chora-tadbirlarining ortishi mamlakatimizda "Yashil" iqtisodiyot muammolari bilan statistik jihatdan bog'liqlik mavjud. Masalan, atrof-muhit tashkilotlariga a'zo bo'lishlar sonining 1 ta ortishi "Yashil" iqtisodiyot muammolarini 0.13 birlikka kamaytirgan bo'lsa, o'zgarishlariga qarshi kurashlar 1ta chora-tadbirlarga ortishi "Yashil" iqtisodiyot muammolarini 0.00055 birlikka ko'paytirmoqda.



Umuman olganda, ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, ekzogen o'zgaruvchilar endogen o'zgaruvchilarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va q413e va "Yashil" iqtisodiyot muammolari va q413a o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Natijada esa sog'liq muammolari z-testning  $r > 0.05$  qiymat oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatli bo'lgani uchun 0.8 birlikka yaxshilanmoqda. Aslida, "Yashil" iqtisodiyotga transformatsiyalashuv makro darajada aholi turmush farovonligi hamda umumiy barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan.

Diagnostika testlarini hisoblaganimizda quyidagilar aniqlandi.

Fit statistikasi | Qiymat tavsifi ehtimollik nisbati (Fit statistic Value Description)  $\chi^2_{ms}(3)$  | 14.593 modelga nisbatan to'yingan  $r > \chi^2$  | 0,002. Jami ildizlar o'rtacha kvadratik xatosi (RMSEA Root mean squared error of approximation) 0,051 ga teng. Asosiy taqqoslash qiyosiy moslik indeksi (Comparative fit index) 0,647ni tashkil qilmoqda. Qoldiqlar hajmi bo'yicha standartlashtirilgan ildiz o'rtacha kvadrat qoldiq (Standardized root mean squared residual) 0,025 bo'lsa, determinatsiya koeffitsiyenti (Coefficient of determination) 0,48 ga teng, deb topildi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qisqacha mulohaza qiladigan bo'lsak, makroiqtisodiy barqarorlik "Yashil" iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir qiladimi yoki yo'qmi, aniq konsensus yo'q. Ba'zilar makroiqtisodiy barqarorlikni rag'batlantirishga qaratilgan siyosat qisqa muddatli iqtisodiy o'sishni uzoq muddatli ekologik barqarorlikdan ustun qo'yishi mumkinligini ta'kidlasa, boshqalari barqaror makroiqtisodiy muhit barqaror iqtisodiy o'sish va "Yashil" texnologiyalarga sarmoya kiritish uchun asos bo'lishi mumkinligini ta'kidlamoqda. Bundan tashqari, tegishli kontekst va o'zgaruvchilar munosabatlarning yo'nalishi va hajmini aniqlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Shu sababli bizning tadqiqotimizda makroiqtisodiy barqarorlikning "Yashil" iqtisodiy rivojlanishga teskari ta'sir qilishi davlat xarajalarining ortishi bilan, balki sanoatni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar soni bilan bog'liq bo'lishi, xorijiy migratsiya hajmining ortishi natijasida atrof-muhitning yangi muammolari paydo bo'lishi, ishsizlar tabiatga kattaroq darajada zarar yetkazayotganligi, investitsiya va jamg'armalar hajmining ortishi, balki qurilish sanoatida hamda transport-logistika xizmatlari vositasida katta hajmli chiqindilar sababli, shuningdek, norasmiy daromadlarning ortib borishi atrof-muhitni yaxshilash va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash kurashish sekinlashayotgan bo'lishi mumkin deb xulosa qilish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги "2019 — 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг "яшил" иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПҚ-4477-сон Қарори <https://lex.uz>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрдаги "2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг Атроф муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5863-сонли Фармони. <https://lex.uz>
3. Stern N. (2006). The Stern Review on the Economics of Climate Change. HM Treasury, London.
4. Brown T. A. & Moore M. T. (2012) Confirmatory factor analysis. In R. H. Hoyle (Ed.), Handbook of structural equation modeling. New York: Guilford Press. Pp. 361-379.
5. Akramov A. (2021). O'zbekiston iqtisodiy o'sishi va ekologik barqarorlik: Muammolar va istiqbollar. Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti.
6. Stuive I. (2007) A comparison of confirmatory factor analysis methods: oblique multiple group method versus confirmatory common factor method. Unpublished dissertation, Univer. of Groningen, Groningen, The Netherlands. Retrieved from <http://irs.ub.rug.nl>
7. Бирлашган Миллатлар ташкилоти Барқарор Ривожланиш мақсадлари (SDGs) <https://www.undp.org/sustainable-development-goals>.
8. Floyd F. J. & Widaman K. F. (1995). Factor analysis in the development and refinement of clinical assessment instruments. Psychological Assessment, 7, 286–299.
9. Ferrando P. J. & Lorenza-Sevo U. (2005). IRT-related factor analytic procedures for testing the equivalence of paper-and-pencil and Internet-administered questionnaires. Psychological Methods, 10, 193–205.
10. <https://www.statisticshowto.com>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2024. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

